



O‘QISH SAVODXONLIGI: MATN TAHLILI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Xatamova Munisa Mamadulla qizi

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Yangi asrda globallashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalariga jadal kirib kelmoqda va bu holat ta’lim tizimiga ham yangi vazifalar yuklamoqda. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan metod va texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi nafaqat ilm-fan, balki ta’lim tizimining ham ustuvor yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Natijada, dunyo ilmiy doiralarida ta’lim sohasini faqat nazariy jihatdan o‘rganishdan ko‘ra, uning sifatini oshirish va umumiy samaradorligini ta’minlashga qaratilgan amaliy tadqiqotlarga keng e’tibor berilmoqda. Maqolada o‘qish savodxonligi: matn tahlili hususida ayrim mulohazalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. O‘qish savodxonligi, matn tahlili, ta’lim sifati, Xalqaro baholash dasturlari, PISA, axborotni tahlil qilish, tanqidiy tafakkur, o‘qish ko‘nikmalari, ta’lim innovatsiyalari, o‘qish strategiyalari, savodxonlik darajalari.

ЧИТАТЕЛЬСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ: НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО АНАЛИЗУ ТЕКСТА

Абстрактный. В новом столетии процесс глобализации стремительно проникает во все сферы жизни общества, и эта ситуация ставит новые задачи и перед системой образования. Сегодня практическое применение методов и технологий, способствующих повышению качества образования, становится приоритетным направлением не только науки, но и системы образования. В результате в мировых научных кругах все больше внимания уделяется прикладным исследованиям, направленным на повышение качества и общей эффективности образования, а не его исключительно теоретическому изучению. В статье анализируются некоторые соображения, касающиеся грамотности чтения: анализ текста.

Ключевые слова. Грамотность чтения, анализ текста, качество образования, международные программы оценки, PISA, анализ информации, критическое мышление, навыки чтения, образовательные инновации, стратегии чтения, уровни грамотности.

READING LITERACY: SOME CONSIDERATIONS ON TEXT ANALYSIS

Annotation. In the new century, the process of globalization is rapidly entering all spheres of society, and this situation is also imposing new tasks on the education system. Today,

the practical application of methods and technologies that serve to improve the quality of education is becoming a priority not only for science, but also for the education system. As a result, in world scientific circles, wide attention is paid to practical research aimed at improving the quality and ensuring its overall effectiveness, rather than studying the field of education only theoretically. The article analyzes some considerations on reading literacy: text analysis.

Keywords. Reading literacy, text analysis, quality of education, International Assessment Programs, PISA, information analysis, critical thinking, reading skills, educational innovations, reading strategies, literacy levels.

Kirish. Rivojlanishning asosiy manbai bu o‘qish qobiliyatidir, chunki o‘qish – bu “matnlarni idrok etish, tushunish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq murakkab faoliyat”dir. Keng ma’noda “o‘qish” atamasi dunyoni tushuntirish va sharhlash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bizni qiziqtiradigan ma’no esa tor ma’nodagi o‘qish – bu «matn bilan ishlashning kognitiv strategiyalari va usullari»dir, ular hayot davomida takomillashtirilishi kerak. Ushbu takomillashtirish jarayonida maktab davri katta rol o‘ynaydi, chunki ta’lim o‘quvchilarning bosma va elektron darsliklar bilan ishlashini tashkil etish asosida quriladi.

O‘qish savodxonligi esa inson taraqqiyotining muhim mezon bo‘lib, u har bir jamiyatda axborot almashinuvi va ta’lim tizimining rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda savodxonlik faqat oddiy o‘qish va yozish emas, balki ma’lumotni tahlil qilish, undan to‘g‘ri xulosa chiqarish va hayotda qo‘llay olishni ham anglatadi. Shu bois, xalqaro baholash dasturlari, jumladan **PISA** va **PIRLS** o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini chuqur tahlil qilib, ta’lim sifati bo‘yicha tavsiyalar beradi. Xalqaro tadqiqotlar natijalari ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, pedagogik metodlarni yangilash va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish uchun muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xalqaro Talabalarni Baholash Dasturi (PISA) va uning O‘zbekistondagi vakili, psixologiya fanlari doktori G.A. Tsukerman o‘qish savodxonligini “yozma matnlarni tushunish va ulardan foydalanish, ular haqida mulohaza yuritish hamda shaxsiy maqsadlarni amalga oshirish, bilimlarni kengaytirish va ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish maqsadida o‘qish qobiliyati” sifatida belgilaydi⁶¹.

G.A. Tsukerman o‘z asarlarida “o‘qish savodxonligi” va “o‘qish” tushunchalarini ajratadi. “O‘qish deganda dekodlash – harflarni tovushlarga aylantirish jarayoni tushuniladi. O‘qish savodxonligi esa asosiy dekodlashdan boshlab, so‘zlar, grammatika, matn tuzilmasi va dunyo haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi”⁶². G.A. Tsukerman fikrlaridan quydagicha xulosaga kelishimiz mumkin, o‘qish faqat harflarni tovushlarga aylantirish, ya’ni dekodlash jarayonini anglatadi. Bu boshlang‘ich bosqich bo‘lib, inson matnni texnik jihatdan o‘qiy olishini bildiradi,

⁶¹Цукерман, Г. А. Оценка читательской грамотности: Материалы к обсуждению / Г. А. Цукерман. – Москва : РАО, 2010. – 67 с.

⁶²Цукерман, Г. А. Хорошо ли читают российские школьники? / Г. А. Цукерман, Г. С. Ковалева, М. И. Кузнецова. – Текст : непосредственный // Вопросы образования. – 2007. – № 4. – С. 240–266.

lekin uning ma'nosini tushuna olishini emas. "O'qish savodxonligi" esa bundan ancha murakkab tushuncha bo'lib, unda nafaqat dekodlash, balki so'z va jummalarni tushunish, grammatika qoidalarini qo'llash, matnning mantiqiy tuzilishini anglash hamda dunyo haqidagi umumiy bilimlarni qo'llash kabi ko'nikmalar mujassam bo'ladi. O'qish savodxonligi yuqori bo'lgan odam matnni faqat o'qibgina qolmay, balki uni tahlil qiladi, asosiy g'oyalarni ajratib oladi va unga tanqidiy yondashadi.

"O'qish savodxonligi" iborasi dastlab Xalqaro tashkilot – Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development – OECD) tomonidan nazariy izlanishlar kontekstida paydo bo'lgan. Bu tashkilot zamonaviy maktab ta'limi natijalari mehnat bozorining talablariga qanchalik mos kelishi bilan bog'liq savollarni o'rganadi. OECD buyurtmasi bilan aynan maktabni tamomlayotgan o'quvchilar kompetensiyasini o'lchash uchun PISA testi ishlab chiqilgan. Biroq, PISA testi yaratuvchilari "kompetensiya" tushunchasidan ortiqcha foydalanmaslikni afzal ko'rishadi – bu tushuncha odatda standart bo'lmagan, maktabga o'xshamagan vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatini bildiradi⁶³. Ular esa neytralroq atama – "o'qish savodxonligi" terminidan foydalanadilar.

PISA Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) tomonidan amalga oshiriladigan Xalqaro baholash dasturi (Programme for International Student Assessment (bundan buyon PISA baholash tadqiqoti)) PISA – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi test. Har bir ishtirokchi mamlakatdan ushbu sinovlar uchun 4500 dan 10000 nafargacha o'quvchi test sinovlariga jalb etiladi.

O'zbekiston 2022-yilda ilk bor PISA (Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi) tadqiqotida ishtirok etdi. Ushbu tadqiqotda mamlakatimiz o'quvchilari o'qish savodxonligi bo'yicha 336 ball to'plab, 80-o'rinni egalladi. Bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston oxirgi o'ntalikdan joy oldi. PISA tadqiqotida o'qish savodxonligi 6 ta darajada baholanadi. O'zbekiston o'quvchilarining faqat 12,2 foizi 2-darajaga, 1,8 foizi 3-darajaga va 0,1 foizi 4-darajaga erishgan. 5 va 6-darajaga erishgan o'quvchilar esa afsuski aniqlanmagan.

Yuqoridagi ma'lumotlaridan ma'lumki yurtimizda o'qish savodxonligi masalasi anchagina dolzarb masalalardan biridir. O'quvchilarda o'qish savodxonligini yaxshilash, yangi metod va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, o'qish savodxonligi darajasini baholovchi dasturlarni ishlab chiqish bugungi kun pedagog-tadqiqotchilar oldida yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi.

⁶³Новые требования к содержанию и методике обучения в российской школе в контексте результатов международного исследования PISA 2000 / под ред. К. Н. Поливановой. – Москва : Университетская книга, 2005.

Natijalar. PISA tadqiqotlarida o‘quvchilar o‘qish savodxonligi bo‘yicha 6 ta darajada baholanadi.

1- darajada – O‘quvchi matndan aniq bayon etilgan bir yoki bir nechta ma’lumot birliklarini topa oladi, matnning asosiy mavzusini yoki muallifning tanish mavzu bo‘yicha matnni yaratishdagi maqsadini anglay oladi. O‘quvchi matn mazmuni va kundalik hayotiy bilimlar o‘rtasida bog‘lanish o‘rnata oladi. Odatda, kerakli ma’lumot matnning yuzasida bo‘ladi va maxsus ajratib ko‘rsatiladi; matn deyarli ziddiyatli ma’lumotni o‘z ichiga olmaydi. Ham matn, ham unga tegishli savol o‘quvchiga javob uchun zarur bo‘lgan ma’lumotni topishga yordam beradigan ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

2-darajada – O‘quvchi matndan bir yoki bir nechta ma’lumot birliklarini topa oladi, bu esa qo‘shimcha, lekin murakkab bo‘lmagan tahlilni talab qiladi. U matnning asosiy g‘oyasini anglay oladi, matnning alohida qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushunadi va matnning ayrim qismlarini taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish orqali talqin qiladi. Matnni tushunish uchun o‘quvchi matn va matndan tashqaridagi bilimlar o‘rtasida bog‘lanishlarni o‘rnatishi, shuningdek, shaxsiy tajriba va o‘z munosabatlariga tayanishi kerak bo‘ladi.

3-darajada – O‘quvchi matndagi ma’lumot birliklari o‘rtasida bir nechta mezonlarga javob beradigan bog‘lanishlarni o‘rnatishga qodir. Matnning asosiy g‘oyasini ajratib olish uchun uning alohida qismlarini bog‘lash va talqin qilish zarur. Matn mazmunini taqqoslash, qarama-qarshi qo‘yish va kategoriyalarga bo‘lish bir vaqtning o‘zida bir nechta asosda amalga oshiriladi. Odatda, kerakli ma’lumotlar aniq ko‘rsatilmaydi, matnda ziddiyatli ma’lumotlar va boshqa qiyinchiliklar ko‘p bo‘ladi: ayrim fikrlar o‘quvchi kutilmalariga mos kelmaydi yoki rad etish orqali bayon etilgan bo‘ladi. Matnni anglash uchun o‘quvchi uning mazmuni va shakliga oid ayrim elementlarni tushuntirishi yoki baho berishi kerak. Ushbu darajadagi ayrim topshiriqlar matn mazmuni va umumiy hayotiy bilimlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni batafsil tushunishni talab qiladi, boshqa topshiriqlar esa keng tarqalmagan bilimlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

4-darajada – O‘quvchi matnda aniq aytilmagan, yashirin ma’lumot birliklarini topish va ularni bog‘lash qobiliyatiga ega. Ushbu darajadagi ba’zi topshiriqlar matnning umumiy mazmuni bilan bog‘liq til o‘ziga xosliklarini tushunishni talab qiladi. Boshqa topshiriqlar esa o‘quvchiga notanish mavzudagi matnlarni tushunishni nazarda tutadi. O‘quvchi mazmuni va shakli bilan tanish bo‘lmagan, uzun va murakkab matnlarni aniq va batafsil tushunishni ko‘rsatishi kerak. Muallifning fikrini rivojlantiruvchi baholar va taxminlar matndagi maxsus bilimlarga asoslanadi.

5-darajada – O‘quvchi matnda eng chuqur qatlamlarda joylashgan ma’lumot birliklarini topish va bog‘lash qobiliyatiga ega. Bunda o‘quvchi topshiriqqa tegishli ma’lumotni ko‘plab o‘xshash ma’lumotlar orasidan tanlab olishiga to‘g‘ri keladi. Matnni anglash ilmiy va ixtisoslashgan bilimlarga asoslanadi. Bunday matnlarning mazmuni va shakli o‘quvchiga notanish bo‘ladi. Ushbu darajadagi topshiriqlar o‘quvchidan kutgan natijalariga zid bo‘lgan tushunchalarni o‘qib tushunishni talab qiladi.

6-darajada – O‘quvchi matnni umumiy va har bir qismini, hatto eng chuqur qatlamlarda yashiringan ma’lumot birliklarini, har bir nozik tafsilotini batafsil va aniq talqin qilish qobiliyatiga ega. O‘quvchi bir nechta matnlarni va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni to‘liq tushunishini namoyish etadi. Matnda ifodalangan, o‘quvchiga notanish bo‘lgan qarama-qarshi g‘oyalarni tushunish talab etiladi. Ushbu g‘oyalarni talqin qilish uchun o‘quvchi mustaqil ravishda mavhum tushunchalar yaratishi kerak. O‘quvchi murakkab va notanish mavzudagi matnni tanqidiy baholash, bir nechta mezonlarga asoslanib va turli nuqtai nazarlarni hisobga olib, o‘qiganlari asosida taxminlar ilgari surish qobiliyatini ko‘rsatadi.

PISA matnlarini o‘qish orqali o‘quvchilar ma’lumotni izlash, asosiy g‘oyalarni ajratish va argumentlarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni namoyish etadilar. Matnlar turli kontekstlardan olingan bo‘lib, hayotiy muammolarni tushunish va hal qilish uchun real sharoitlarga moslashtirilgan. Matn bilan tizimli ishlash o‘quv muammolari va o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish vazifalarini hal qilishga imkon beradi.

Menimcha bugungi kunda matn bilan ishlashni tashkil etishning quyidagi shakllari va usullari eng samarali hisoblanadi:

- matn tahliliga murakkab jarayon sifatida chuqurlashtirilgan holda yondashish;
- matnni lingvistik tahlil qilish;
- matnni tahrirlash;
- insho asosida fikr yuritish;
- intellektual va lingvistik mashqlar.

Darslarda maktab o‘quvchilarining hayotiy tajribalariga asoslangan, haqiqatga yaqin bo‘lgan mavzudagi matnlardan foydalanish samaraliroqdir.

Biz bugungi kunda yangilanayotgan darsliklarda va PISA testlarida matnlarning(tasniflash ta'lim sifati bo'yicha xalqaro tadqiqotlar doirasida tuzib chiqildi) quydagi turlarini uchratishimiz mumkin:

- **yaxlit matn** (jumlar bilan biriktirilgan);
 - **yaxlit bolmagan matn** (tavsif, bayon, mulohaza yuritish, tushunchani aniqlash, ko‘rsatmalar);
 - **aralash matn** (reklama, komikslar, afishalar, afishalar);
 - **murakkab matn** (veb-sayt, forum, chat, bitta mavzuga bir nechta matnlarni kiritish).
- Matnlar tasnifiga ko‘ra turli funksiyalarni bajaradi:
- **asosiy matn** – bir nechta topshiriqlardan iborat matn;
 - **yordamchi matn** - alohida topshiriqning tuzilishiga kiritilgan yoki asosiy matn (illyustratsiya, she’r, lug‘at yozuvi) bilan bog‘liq bo‘lgan matn;
 - **to‘liq matn**- hech qanday qoidabuzarliksiz matndir;
 - **fragmentar matn** – to‘liq matndan ko‘chirma bo‘lgan matn;
 - **deformatsiyalangan matn** - masalan, qismlar ketma-ketligi buzilgan matn;

– *o‘quv (o‘quv, didaktik, kognitiv) matn* - o‘qish ta’lim maqsadlariga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan matn (ma’lumotnoma adabiyotlari, o‘quv, ilmiy-ommabop matnlar) va boshqalar.

Shuni ham alohida takidlash kerakki, PISA matn tushunchasini an’anaviy tushunchadan kengroq yondashuvda ko‘rib chiqadi. PISAga ko‘ra, matn bu faqatgina harflardan iborat bo‘lgan axborot shakli emas, balki turli formatlardagi vizual va mantiqiy tarkibga ega bo‘lgan axborot manbaidir.

Matn tarkibiga kiruvchi unsurlar:

- Badiiy matnlar – hikoyalar, she’rlar, romanlardan olingan parchalar, biografiyalar
- Hujjatli matnlar – tarixiy hujjatlar, shaxsiy xatlar, bayonotlar
- Ilmiy va informatsion matnlar – maqolalar, tahliliy sharhlar, gazeta va jurnal materiallari
- Vizual materiallar – diagrammalar, rasmlar, infografikalar
- Jadvallar va xaritalar – geografik, demografik va iqtisodiy ma’lumotlarni ifodalovchi tasviriy vositalar

Shuningdek, o‘qish madaniyati inson umumiy madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Shu bilan birga, o‘qish madaniyatini shakllantirishning asosi o‘qish savodxonligini rivojlantirish ko‘nikmalaridir. Ular o‘z navbatida, nafaqat o‘qish, balki tushunish, sharhlash va olingan ma’lumotni amalda qo‘llashga imkon beruvchi bilim va ko‘nikmalar tizimi sifatida o‘qish kompetentligini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

N.V. Ponomaryova o‘zining “Yosh kitobxonlarning o‘quv madaniyatini shakllantirish” mavzusidagi dissertatsiyasida o‘qish madaniyatini yosh kitobxonning madaniyati sifatida belgilaydi. Unga kitob tanlash, o‘qish, o‘qilgan ma’lumotni o‘zlashtirish va o‘qish yuzasidan muloqot qilish kiradi⁶⁴. (2-rasm)

Muhokama. Maktabda ona tili darslari qiziqarli va samarali bo‘lishi uchun matnlar, birinchidan, har xil formatda bo‘lishi, ikkinchidan, darsda matnlar ko‘p bo‘lishi kerak. Ta’limning barcha bosqichlarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlarning amalga oshirilishigina savodli kitobxonni shakllantirish muammosini hal qilishi mumkin. Buning uchun matn bilan ishlash jarayonining barcha vositalarni to‘g‘ri yo‘naltira olishimiz kerak. Matnni birlashtirish va talqin qilish bilan bog‘liq o‘qish harakatlari dars jarayonida juda muhimdir. Matnni to‘g‘ri tushunish uchun alohida xabarlarini bir-biri bilan bog‘lash va ularni sharhlash kerak. Sharh va izohlash matndan aniq berilmagan ma’lumotlarni olishdan iborat. O‘quvchi yashirin aloqalarni o‘rnatishi, muallif tomonidan aytilgan xabarni tanib olishi va

⁶⁴ Пономарева, Н. В. Формирование читательской культуры лидеров чтения юношества: специальность 05.25.03 «Библиотечковедение, библиографоведение и книговедение»: диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук / Пономарева Нина Васильевна. – Ленинград, 1984. – 178

subtekstni tushunishi kerak. Matnni sharhlashda o‘quvchi butun matnda ham, uning alohida qismlarida ham yashirin taxminlar yoki bayonotlar qiladi. Matnni talqin qilish bir qator aqliy harakatlarni talab qiladi. Javobni shakllantirish uchun o‘quvchi matn xabaridan xulosa chiqarishi, muhim va ikkinchi darajali tafsilotlarni farqlashi, matnning asosiy fikrlari va qoidalarini qisqacha shakllantirishi va oldingi voqea haqida xulosa chiqarishi kerak. Shaxs matnning xabarlarini yaxlit bir butunlikka birlashtira olsa yoki bog‘lay olsa, bu o‘quvchi matn elementlarini alohida jumlar yoki paragraflardan qo‘shma matn qismlariga bog‘lashini tushunganligini ko‘rsatadi. Axborot birliklarini bog‘lash ularning matndagi umumiy rolini aniqlash, o‘xshashlik yoki farqlarni ko‘rsatish, sabab-oqibat munosabatlarini ochib berishdir. Matn haqida umumiy, yaxlit tushunchani shakllantirish uchun matnning alohida xabarlarini bog‘lash va ularni sharhlash qobiliyati zarur. Agar o‘quvchi matnning asosiy mavzusini yoki uning asosiy maqsadini aytsa, u matnning yaxlitligi haqida dastlabki tushunchani namoyish etadi. Asosiy fikrni aniqlab, u asosiyni ikkinchi darajalidan ajratib olishini va matnning ma'lum bir bayonotida yoki sarlavhasida asosiy fikrni tushunishini ko‘rsatadi.

Matnni bog‘lash va izohlash qobiliyatini mashq qilish uchun o‘quvchilar matnga sarlavha o‘ylab topishlari yoki tegishli kirish so‘zlarini tuzishlari, grafikdagi o‘qlar yoki jadval ustunlarining nomlarini tiklashlari, matndagi harakatlar tartibini tiklashlari kerak. ko‘rsatmalar, tasvirning maqsadini tushuntirish yoki hikoyani tavsiflang. Ba'zi savollar o‘quvchini matnning ma'lum bir qismiga e'tibor berishga majbur qiladi, boshqalari esa butun matnga murojaat qiladi. O‘quvchilar matndagi ma'lumotlar birliklarini doimiy ravishda almashtirib tursa, o‘qiganini to‘liq va chuqur anglashi mumkin bo‘ladi. Matn bilan ishlash chuqur tushunishni talab qiladi, chunki o‘quvchi muallifning niyatini aniqlay olishi, umumiy matnga maxsus soylar beradigan so‘z yoki epizodning ma'nosini tushunishi kerak.

O‘qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘quvchilarning matnni tushunish va baholash bilan bog‘liq harakatlari zarur. O‘qigan ma'lumotlarini tushunib, baholay oladigan o‘quvchi matn mazmunini o‘z e’tiqodi, hayotiy tajribasi bilan bog‘laydi. Matnni o‘qiyotganda, o‘quvchi matnni o‘qishdan oldin unga ma'lum bo‘lgan bilim, g‘oya va his-tuyg‘ularni tushunish va baholash uchun foydalanadi. Matn mazmunini to‘g‘ri tushunish va baholash uchun o‘quvchi matndan olingan ma'lumotni matndan tashqari boshqa manbalar bilan bog‘laydi. U matnda berilgan gaplarga rozi yoki rozi emas. Matn tayyor to‘liq mazmunni ifodalovchi aloqa ta’sirning maxsus birligidir. U xabarning saqllovchisi va yetkazib beruvchisi hisoblanadi. O‘qish savodxonligi bo‘yicha topshiriqlar matndan ma'lumot topish, matnni sharhlash va uning mazmuni haqida fikr yuritish darajasini baholaydi. O‘quvchilarning matndan ma'lumot izlash qobiliyatini baholashda matnni o‘qish, ma'lumotlarni tushunish, baholay olish, xulosalash, sinonimik shaklni ifodalovchi ma'lumotlarni topishga e’tibor beriladi. Matnni talqin qilish darajasini baholashda matndagi turli ma'lumotlarni solishtirish, muallif fikrini umumlashtirish, matn mazmunini tushunish tavsiya etiladi. O‘quvchilarning matnni tushunish jarayonini baholashdan matndan olgan fikrlarini boshqa joydan olgan bilimlari bilan bog‘lash, o‘z fikr va qarorlarini isbotlash uchun foydalaniladi.

Xulosa. Izlanishlarimiz mobaynida o‘qish savodxonligiga quydagicha ta’rif berishimiz mumkin:

- turli xil axborotlarni (o‘quv, ilmiy-ommabop adabiyotlar, ilmiy-ommabop davriy nashrlar, boshqa manbalar, shu jumladan OAV va Internet saytlarida berilgan) o‘qish, qabul qilish, topish, tahlil qilish, anglash, baholash va umumlashtirish mahorati;
- zaruriy axborotni topish, uni belgilangan vazifaga muvofiq integratsiya qilish, talqin qilish, qayta ishlash mahorati;
- olingan axborotdan hayotiy va kasbiy vaziyatlarda foydalanish mahorati.

O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish nafaqat bilim olish jarayonining sifatini oshiradi, balki ularning fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Bu jarayon o‘quvchilarning nafaqat darsliklardan olingan bilimlarini hayotda qo‘llashga, balki mustaqil o‘qish orqali yangi ma’lumotlarni izlab topishga va ulardan unumli foydalanishga, jamiyatda faol shaxs sifatida ishtirok etishlariga imkon yaratadi. Yoshlarning o‘qish savodxonligi darajasini rivojlantirish jarayonida ularning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish, milliy va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirgan holda zamonaviy metod va texnologiyalarni ishlab chiqish, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda darslik va o‘quv materiallarini yaratish ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Цукерман, Г. А. Оценка читательской грамотности: Материалы к обсуждению / Г. А. Цукерман. – Москва : РАО, 2010. – 67 с.
2. Цукерман, Г. А. Хорошо ли читают российские школьники? / Г. А. Цукерман, Г. С. Ковалева, М. И. Кузнецова. – Текст : непосредственный // Вопросы образования. – 2007. – № 4. – С. 240-266.
3. Новые требования к содержанию и методике обучения в российской школе в контексте результатов международного исследования PISA 2000 / под ред. К. Н. Поливановой. – Москва : Университетская книга, 2005.
4. UNESCO (2003–2012). *The United Nations Literacy Decade*. Paris: UNESCO.
5. OECD (2022). *PISA 2022 Results*. Paris: OECD Publishing.
6. Mik, M. (1998). *Reading as a Core Educational Task*. New York: Academic Press.
7. Ta’lim yutuqlarini baholash bo‘yicha Xalqaro Assotsiatsiya (IEA). (2022). *Education Trends and Performance in Central Asia*.
8. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi. (2023). *O‘zbekistonning PISA tadqiqotidagi natijalari va tahlillari*.
9. Rasulov A., Usmonova M. (2020). *O‘qish savodxonligini shakllantirish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
10. Qodirov B. (2021). *Ta’lim sifatini baholash va xalqaro tadqiqotlar natijalari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

11. Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2009.
12. Safarova R., Musayev U. va boshq. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo‘llari. – Toshkent: Fan, 2005.
13. Safarova R. Ona tili ta’limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – Toshkent: Fan, 1995.